O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ANDIJON VILOYATI MARHAMAT TUMANI HOKIMINING QARORI

Marhamat tumani, Bobursho‘cha 42-uy, tel: (74) 391-25-00

2022 - yil 17 - avgust 365-1-24-Q/22 Marhamat tumani hokimligi

Marhamat tumani markazidagi avtomobil yo'llarida xarakat xavfsizligini ta'minlash, tartibga solish va yo'l transport xodisalarini oldini olish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining “Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 24 dekabrdagi 370-son “Yo'l harakati qoidalarini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori to'plamini hamda Marhamat tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasining 2022 yil 2 avgust kunidagi №01-03-312 sonli xatini ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasining “Maxalliy davlat xokimiyati to'g'risida”gi Qonunning 6, 25-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasining “Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 24 dekabrdagi

370-son “Yo'l harakati qoidalarini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori hamda Marhamat tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasining 2022 yil 2 avgust kunidagi №01-03-312 sonli xati ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Marhamat tumani yo'llardan foydalanish unitar korxonasi boshlig'i (Sh.Ergashev)ga, “Shaxrixon-Asaka-Marhamat-Qizilqiya” 4R-138 avtomobil yo'lining 41 kmga hamda “Bozorboshi-Marhamat” 4N-1130 avtomobil yo'lining 4 kmga 3.27 to'xtash taqiqlanadi va 3.28 to'xtab turish taqiqlanadi yo'l belgilari uchun belgilangan tartibda o'rnatish vazifasi topshirilsin.

3. Marhamat tumani ichki ishlar bo'limi yo'l xarakati xavfsizligi guruxi “Shaxrixon-Asaka-Marhamat-Qizilqiya” 4R-138 avtomobil yo'lining 41 kmga hamda “Bozorboshi-Marhamat” 4N-1130 avtomobil yo'lining 4 kmga 3.27 to'xtash taqiqlanadi

va 3.28 to'xtab turish taqiqlanadi” yo'l belgilarini belgilangan tartibda o'rnatilish joylarini belgilab berish va ushbu o'rnatilgan belgilar doirasida tuman markazidagi avtomobil yo'llarida xarakat xavfsizligini ta'minlash, tartibga solish va yo'l transport xodisalarini oldini olish choralarini ko'rsin.

4. Marhamat tumani ichki ishlar bo'limi yo'l xarakati xavfsizligi guruxiga, tuman qurilish bo'limi (S.Xomidov)ga, tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi boshlig'i (Sh.Ergashev)ga tuman markazidagi avtotransport vositalarini tartibga solish maqsadida shaxarsozlik me'yor va qoidalariga rioya qilgan holda avtotransport vositalarini vaqtinchalik saqlash joylarini tashkil qilish bo'yicha tegishli taklif va loyixalarni tuman hokimligiga taqdim etish vazifasi topshirilsin.

5. Tuman hokimligi ish yuritish bo'limi (M.Raximov), mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini, qog'oz va elektron shakllarda bir kunlik muddatda, tegishli davlat organlari hamda tashkilotlarga yetkazilishini tashkillashtirsin.

6.Ushbu qaror rasmiy manbalarda e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish vazifasi tuman hokimining o'rinbosari D.Ismoilov zimmasiga yuklatilsin

Туман ҳокими **Б. Юлдашев**